
MAKTABGACHA TALIM BO' LIMINING ANANAVIY AVGUST ANJUMANI O'TKAZILDI

□ Bugun tumanimiz hududidagi "Osiyo" to'yxonasida tuman maktabgacha ta'lim bo'limining "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz" shiori ostida "Maktabgacha ta'lim sifati: joriy holat va istiqboldagi vazifalar" mavzusidagi an'anaviy avgust anjumani o'tkazildi.

□ Anjumanda tuman hokimining o'rinbosari Zarifjon Umarov, sektor rahbarlari, viloyat maktabgacha ta'lim boshqarmasi vakili, ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Rishton tuman bo'linmasi kengashi raisi E.Abdullaev, tuman maktabgacha ta'lim bo'limi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari mas'ullari, shuningdek viloyatimizda faoliyat olib borayotgan OAV xodimlari va blogerlar ishtirok etdilar.

□ Anjuman avvalida tuman hokimining o'rinbosari Z.Umarov mazkur sohani rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini ko'paytirish va ularga bolalar qamrovini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni alohida qayd etib o'tdi. Anjuman ishida tuman maktabgacha ta'lim bo'limi boshlig'i Muhayyo Dadajonovaning 2021-2022 yillarda soha rivoji yo'lida amalga oshirilgan ishlar va istiqboldagi vazifalar yuzasidan axboroti eshitildi.

□ Shundan so'ng barcha sektor rahbarlari so'zga chiqib, farzandlarimiz kamoli yo'lida fidoyilik qilib kelayotgan ustoz-tarbiyachilarni bugungi anjuman hamda yaqinlashib kelayotgan Respublikamiz mustaqilligining 31 yilligi bilan tabriklab, qiyin va mas'uliyatli, shu bilan birga sharaflilik kasbda ularga kuch-quvvat, salomatlik tiladilar. Anjumanda bir guruh soha vakillari fidoyiligi va faolligi alohida e'tirof etilib, tuman hokimligining Faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2022-08-24 16:54:31